

**Uzbek transcript:**

A: Litseydagi o'qishlarim juda ham yaxshi ketayapti. Litseyda ayniqsa shu ingliz tili faniga yaxshi mehr qo'yganman. Ingliz tili fanini u yerda chuqurroq, ya'ni grammatikasini va boshqa narsalarni, ko'pgina, shularga e'tibor berib o'qiyapman. Undan tashqari yana informatika fani ham bizada mavjud. U mening shu asosiy fanimga kirmasa ham, informatika faniga men alohida e'tibor beraman, qarataman. Informatika o'qituvchilarimiz bizaga qo'lidan kelgancha yordam qiladilar, masalan so'ragan paytlarimiz, ayamasdan aytib, men informatika faniga qiziqqanim uchun, shu barcha informatika domlalarimiz bilan, masalan, ko'p narsalarni so'zlab, muhokama qilamiz, shu informatika fanini ham ingliz tili bilan birga chuqur olib bormoqchiman. Chunki bu kelajakda meni muvaffaqiyatlarimga juda ham katta yordam beradi.

Q: Tushunarli, nima uchun aynan shu litseyni tanlagansiz? Buxoroda boshqa litseylar ham bormi?

A: Buxoroda boshqa litseylar ham mavjud, lekin bu litseyda men eshitishimcha ingliz tili juda ham chuqur o'rgatildirdi. Men shu filologiyani tanlaganim uchun, ayna shu ingliz tili, yaxshi chuqurroq o'rgatiladigan litseyga kirmoqchi edim. To'g'ri boshqa litseylarni ham tanlashim mumkin edi, va yana ko'plab, masalan, sabalar bor, uyimga yaqin bo'lgani uchun, yana boshqa tomonlardan tanlagan edim shu litseyni.

Q: O'zbekistonda, umuman, Buxoroda yoshlar akadem litseylardan tashqari yana qayerda o'qishlarda mumkin?

A: Ko'pgina shu litseylar qatorida kollejlari, masalan, ko'pgina kollejlari, kasb-hunar kollejlari asosan bizada rivojlangan. Bu kasb-hunar kollejlari ko'p narsani, masalan, yigitlar, qizlar o'rganishi mumkin. Akademik litseylardan kasb-hunar kollejlarning farqi kasb-hunar kollejida o'quvchilar o'qib, ma'lum bir hunarlarni, kasblarni egasi bo'ladilar. Akademik litseyda esa ko'p kishi shu oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorlanadi. Masalan, shu kelajakda o'qimishli va bir maqsadni, o'qishni, biron joyga, oliy o'quv yurtlariga kirishni maqsad qilib qo'ygan o'quvchilar akademik litseylarni tanlashadi. Shuning uchun ham akademik litseylar juda ham ko'p rivojlangan. Shu qatorda kollejlari ham, kollejlari kasb-hunar, masalan, yigitlar uchun ko'pgina kasb-hunar kollejlari, qurish kollejlari, yana, mashinasozlik sohasidagi kollejlari, shu aytganimdek informatika sohasida, ya'ni turli xil elektronika asboblarni tuzatish kollejlari mavjud. Qizlar uchun ham juda ham ko'p kollejlari bor.

Q: Siz nima uchun akademik litseyni tanlagansiz, kasb-hunar kollejinimas?

A: Men yoshligimdan maqsad qilib qo'yganman, bu mening orzuim, oliy o'quv yurtida o'qish, iloji bo'lsa shu o'zimizning va yana undan tashqari boshqa mamlakatlarda o'qib kelish niyati bo'lgan, shuning uchun ham akademik litseyni tanlaganman. Akademik

litseyda yaxshigina tayyorlanib oliy o'quv yurtlariga kirishga tayyor...tayyorgarlik ko'ryapman.

Q: Qaysi yo'nalishda o'qimoqchisiz?

A: Shu ikki yilda olgan tajribam bo'yicha ingliz tili va informatika fanlariga juda ham baland qiziqish qo'yganman, shu ikki ta fan bilan ham bog'liq biron bir mutaxassislikni olmoqchiman. Masalan, Toshkentda, poytaxtimizda Aloqa o'quv yurti bor, shu Toshkent Aloqa o'quv yurti. U yerda o'quvchilar, masalan, ko'pgina fakulteti bor institutda, masalan, shulardan biri kompyuter sohasida, masalan, web designer, yoki boshqa yana fakultetlarni ham o'qish mumkin.

**English translation:**

A: My studies at the lyceum are going very well. I especially like my English classes. I am studying English there more in depth, i.e. the grammar and other things, paying attention to many things. Besides we have computer science classes. Though it is not my specialty subject [specialization], I give, pay particular attention to it. The teachers of computer science help us a lot. For example, when we ask [a question] they tell [explain]. Since I am interested in computer sciences, I talk about a lot of things with my computer science teachers. We discuss. I want to keep up computer science together with English because it will help for me to succeed in future.

K: I see. Why did you choose this lyceum? Are there any other lyceums in Bukhoro?

A: There are other lyceums in Bukhoro, but at this lyceum, as I heard, they teach English in depth. As I chose philology, I wanted to go to the lyceum where English is taught particularly well. It is true that I could have chosen other lyceums too and there are many other reasons. For example it is close to my house, and for other reasons I chose this lyceum.

K: In Uzbekistan, in general, in Bukhoro, where does the youth can go to study besides academic lyceums?

A: For example, many colleges, vocational colleges are common in Uzbekistan as well lyceums. At these vocational colleges young men and women can learn a lot of things. The difference between academic lyceums and vocational colleges is the students at vocational colleges study and get a trade or specialty whereas many people go to academic lyceums to prepare to enter universities. For example, the students who plan to study somewhere in the future, to be educated choose academic lyceums. That's why academic lyceums are very common. The same is true about the colleges. The colleges... profession... For example, there are many vocational colleges for the guys... construction colleges, also auto mechanic colleges, as I said, the colleges in the field of computer technologies, i.e. there are colleges for repairing electronics. There are many colleges for girls as well.

K: Why did you choose the academic lyceum, not the vocational college?

A: From my childhood I set a goal. It is my dream to go to university. I have an intention, if possible, to study at our universities and besides to study abroad. That's why I chose academic lyceum. I am trying to prepare well at the academic lyceum and preparing... to enter university

K: What field do you want to study?

A: As the experience I got from these two years shows that I am interested in English and computer sciences very well. I want some specialty that is connected to both of them. For example, in Tashkent, in our capital, there is Institute [University] of Communication, Tashkent Institute of Communication. There, students, they have a lot of departments, for example, one of them is computer sciences, for example, web design, or you can study at other departments.

**About CultureTalk:** CultureTalk is produced by the Five College Center for the Study of World Languages and housed on the LangMedia Website. The project provides students of language and culture with samples of people talking about their lives in the languages they use everyday. The participants in CultureTalk interviews and discussions are of many different ages and walks of life. They are free to express themselves as they wish. The ideas and opinions presented here are those of the participants. Inclusion in CultureTalk does not represent endorsement of these ideas or opinions by the Five College Center for the Study of World Languages, Five Colleges, Incorporated, or any of its member institutions: Amherst College, Hampshire College, Mount Holyoke College, Smith College and the University of Massachusetts at Amherst.

© 2003-2008 Five College Center for the Study of World Languages and Five Colleges, Incorporated